



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(6)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,  
22-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
<b>Madaminova Gulzira Gulamkadirovna</b>	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni .....	14
<b>Arolov Davronjon Davlataliyevich</b>	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish .....	19
<b>Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi</b>	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
<b>Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	26
<b>Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi</b>	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
<b>Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna</b>	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
<b>Hojiyeva Nasiba Bahodirovna</b>	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
<b>Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi</b>	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati .....	43
<b>Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
<b>Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi</b>	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari .....	54
<b>Nusratova Mexriniso Baxshilloevna</b>	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalarda tizimidagi o‘rni.....	59
<b>Pulatova Dilfuza Azamkulovna</b>	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
<b>Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi .....	70
<b>Qurbonova Sevara Suyunovna</b>	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari .....	74
<b>Raxmatov Oxunjon Soibjonovich</b>	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
<b>Saidova Feruza Akramovna</b>	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
<b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
<b>Toxirova Dilshoda Inom qizi</b>	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash .....	92
<b>Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi</b>	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
<b>Xaydarova Go‘zalxon</b>	




Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<b>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</b>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari .....	105
<b>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</b>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<b>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</b>	



# “ESTETIK TARBIYA”, “KREATIV KOMPETENSIYA”, “ESTETIK TARBIYA MEXANIZMLARI” TUSHUNCHALARINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Saidova Feruza Akramovna

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0009-0009-6093-8096>



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy pedagogika fani va amaliyotining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan estetik tarbiya, kreativ kompetensiya hamda estetik tarbiya mexanizmlarining konseptual asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari asoslanadi. Adabiyotlar sharhida xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilar ishlari qiyosiy o'rganiladi. Tahlil va natijalar qismida estetik tarbiyaning kreativ kompetensiyani rivojlantirishdagi pedagogik, psixologik va ijtimoiy-muhitli mexanizmlari jadval va model asosida yoritiladi. Maqolada estetik tarbiya shaxsning ijodiy tafakkuri, estetik didi, hissiy-intellektual faolligi va innovatsion fikrlashini rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** estetik tarbiya, kreativ kompetensiya, estetik tarbiya mexanizmlari, estetik ong, estetik did, ijodiy tafakkur, pedagogik innovatsiya, shaxs rivoji, madaniy muhit.

**Abstract:** This article analyzes the conceptual foundations of aesthetic education, creative competence, and aesthetic education mechanisms, which are among the current areas of modern pedagogical science and practice. The introduction presents the relevance of the topic, the object, subject, goals, and objectives of the study. The literature review provides a comparative study of the works of foreign and domestic researchers. The analysis and results section highlights the pedagogical, psychological, and socio-environmental mechanisms of aesthetic education in the development of creative competence based on tables and models. The article presents aesthetic education as an important pedagogical factor that develops a person's creative thinking, aesthetic taste, emotional and intellectual activity, and innovative thinking.

**Key words:** aesthetic education, creative competence, aesthetic education mechanisms, aesthetic consciousness, aesthetic taste, creative thinking, pedagogical innovation, personal development, cultural environment.

**Аннотация:** В данной статье анализируются концептуальные основы эстетического воспитания, творческой компетентности и механизмов эстетического воспитания, являющиеся одним из актуальных направлений современной педагогической науки и практики. Во введении представлена актуальность темы, объект, предмет, цели и задачи исследования. Проведен обзор литературы, включающий сравнительное исследование работ зарубежных и отечественных исследователей. В разделе анализа и результатов на основе таблиц и моделей освещены педагогические, психологические и социально-средовые механизмы эстетического воспитания в развитии творческой компетентности. В статье эстетическое воспитание представлено как важный педагогический фактор, развивающий творческое мышление, эстетический вкус, эмоционально-интеллектуальную активность и инновационное мышление человека.

**Ключевые слова:** эстетическое воспитание, творческая компетентность, механизмы эстетического воспитания, эстетическое сознание, эстетический вкус, творческое мышление, педагогические инновации, личностное развитие, культурная среда.

## KIRISH

Yangi asr axborot texnologiyalari, intellektual mehnat, raqamli madaniyat va innovatsion tafakkur asri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimi oldiga faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirgan ijrochini emas, balki mustaqil fikrlaydigan, muammolarga kreativ yondasha oladigan, estetik didi va ma'naviy qarashlari rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi qo'yilmoqda. Inson kapitalini rivojlantirishda fan-texnika bilimlari qanchalik muhim bo'lsa, shaxsning hissiy intellekti, go'zallikni his qilish madaniyati, estetik idroki va ijodiy salohiyati ham shunchalik muhim ahamiyatga ega <sup>[1; 4; 8]</sup>.

Pedagogika fani va amaliyotida estetik tarbiya ko'p hollarda san'at, musiqa, tasviriy san'at yoki adabiyot doirasidagi tarbiyaviy faoliyat sifatida talqin etib kelingan. Biroq zamonaviy ta'lim jarayonida estetik tarbiya kengroq ma'noda tushuniladi: u shaxsda borliqdagi uyg'unlikni anglash, go'zallikni qadrlash, mehnat va muloqot madaniyatida nafasat mezonlarini qo'llash, yangilik yaratishga intilish hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi [3; 5; 9].

Kreativ kompetensiya esa shaxsning muammoli vaziyatlarda noodatiy, original va samarali yechimlarni topish, an'anaviy qoliplardan chiqib fikrlash, turli g'oyalarni sintez qilish hamda yangi moddiy yoki ma'naviy mahsulot yaratish qobiliyatidir [6; 7]. Shu jihatdan estetik tarbiya va kreativ kompetensiya bir-biridan ajralgan hodisalar emas, balki shaxs kamolotida o'zaro shartlangan va bir-birini to'ldiruvchi pedagogik jarayonlardir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, estetik tarbiya, kreativ kompetensiya va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. D.R. Djurayeva maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilib, tarbiyaviy jarayonda shaxsning yaxlit rivojlanishini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi [1]. Bu qarash estetik tarbiyani faqat san'at mashg'ulotlari bilan cheklamasdan, umumiy tarbiya tizimining tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi.

T.S. Komarova bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasini psixologik-pedagogik jihatdan yoritib, tasviriy faoliyat, badiiy idrok va ijodiy ifoda o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadi [2]. Muallifning yondashuvi estetik tarbiyaning ijodiy qobiliyatlar bilan bevosita aloqadorligini asoslashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Sh. Jo'rayev va A.A. Allamov bolalar nafasat tarbiyasi va yangi pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali estetik tarbiyani amaliy-metodik jihatdan tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadilar [3].

U.M. Xalikova va D. Xomidova maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish, tarbiyaviy faoliyatni maqsadli rejalashtirish hamda ta'lim muhiti imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalarini tadqiq etganlar [4; 8]. Bu ishlar estetik tarbiya mexanizmlarini tashkiliy-pedagogik jihatdan asoslashda ahamiyatlidir.

L.A. Muhammadjonova etika va estetika fanlarini o'qitish metodikasi orqali estetik kategoriyalar, go'zallik, did, ideal va axloqiy-estetik qadriyatlarining ta'lim jarayonidagi o'rnini izohlaydi [5].

L.S. Vygotskiy shaxsning umumiy psixologik rivojlanishi, tasavvur, tafakkur, nutq va ijodiy faoliyatning ichki mexanizmlarini tahlil qilgan. Uning madaniy-tarixiy yondashuvi estetik kechinma, emotsional tajriba va ijodiy tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'la oladi [6].

V. Kotova, S.V. Kuznetsova va T.S. Romanova esa maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini yoritib, kreativlikni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar, badiiy faoliyat va erkin ijodiy topshiriqlarning ahamiyatini ko'rsatadilar [7].

A.P. Sulaymonov tasviriy san'at ta'limi sifat va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilib, estetik faoliyatni ta'lim sifati bilan bog'laydi [9]. Mazkur tadqiqotlardan farqli ravishda ushbu maqolada estetik tarbiya, kreativ kompetensiya va estetik tarbiya mexanizmlari alohida-alohida emas, balki yagona konseptual tizim sifatida tahlil qilinadi. Muallifning o'ziga xos yondashuvi shundaki, estetik tarbiya kreativ kompetensiyani shakllantirishning ichki psixologik, pedagogik-texnologik va ijtimoiy-muhitli mexanizmlari bilan birgalikda yoritiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, konseptual tahlil, umumlashtirish, tasniflash, modellashtirish va pedagogik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali estetik tarbiya, kreativ kompetensiya va estetik tarbiya mexanizmlari alohida tushunchalar emas, balki o'zaro bog'liq ijtimoiy-pedagogik tizim elementlari sifatida tahlil qilindi.

Qiyosiy taqqoslash metodi mahalliy va xorijiy olimlarning estetik tarbiya, badiiy qobiliyat, ijodiy tafakkur va pedagogik jarayonni loyihalashga doir qarashlarini solishtirishda qo'llanildi. Bu usul orqali mavjud tadqiqotlarda estetik tarbiya ko'proq badiiy faoliyat bilan, kreativ kompetensiya esa ijodiy qobiliyat bilan bog'liq holda izohlangani, biroq ularning o'zaro mexanizmlar darajasidagi aloqadorligi yetarlicha tizimlashtirilmaganligi aniqlandi [2; 3; 7].

Konseptual tahlil yordamida "estetik tarbiya", "kreativ kompetensiya" va "estetik tarbiya mexanizmlari" tushunchalarining mazmuniy chegaralari, tarkibiy komponentlari va pedagogik funksiyalari aniqlashtirildi. Tasniflash metodi asosida estetik tarbiya mexanizmlari psixologik-subyektiv, pedagogik-texnologik va ijtimoiy-muhitli bloklarga ajratildi. Modellashtirish metodi esa estetik ta'sirning idrok, his-tuyg'u, did, ideal va kreativ faoliyatga aylanish jarayonini sxematik tarzda ko'rsatish imkonini berdi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Estetik tarbiya - shaxsda borliqdagi, tabiatdagi, jamiyatdagi, mehnatdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etish, to'g'ri tushunish, qadrlash hamda hayotga go'zallik qonuniyatlari asosida munosabatda bo'lish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayondir [3; 5]. Ushbu tushuncha faqat musiqa, tasviriy san'at yoki adabiyot bilan cheklanmaydi; u ta'lim muhiti, muloqot madaniyati, mehnat estetikasi, pedagogik dizayn va shaxslararo munosabatlar madaniyatini ham o'z ichiga oladi.

Klassik va zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda estetik tarbiyaning tarkibiy qismlari sifatida estetik idrok, estetik his-tuyg'u, estetik did va estetik ideal ajratiladi. Estetik idrok atrofdagi go'zallik shakllari, ranglar, tovushlar va uyg'unlikni ko'ra bilishning boshlang'ich bosqichi bo'lsa, estetik his-tuyg'u go'zallik bilan to'qnashganda inson qalbida yuzaga keladigan ruhiy zavq, hayrat va emotsional munosabatdir. Estetik did go'zallik va xunuklikni, haqiqiy san'at bilan uning soxta ko'rinishlarini farqlash mezonidir. Estetik ideal esa shaxs intiladigan komillik va go'zallik haqidagi yuksak tasavvurni ifodalaydi [5; 9] (1-jadval).

1-jadval: Estetik tarbiya komponentlari va ularning kreativ kompetensiyaga ta'siri

Komponent	Mazmuni	Kreativ kompetensiyaga ta'siri	Manbaviy asos
Estetik idrok	Go'zallik, uyg'unlik, rang, shakl, tovush va simmetriyani anglash	Kuzatuvchanlik, assotsiativ fikrlash va obrazli tasavvurni rivojlantiradi	[2; 3]
Estetik his-tuyg'u	Go'zallikka nisbatan emotsional munosabat va ruhiy zavq	Hissiy intellekt, empatiya va ijodiy motivatsiyani kuchaytiradi	[5; 6]
Estetik did	Go'zallik va xunuklikni farqlash, baholash mezoni	Tanqidiy tanlash, sifatga intilish va original yechimni afzal ko'rishga yordam beradi	[5; 9]
Estetik ideal	Shaxs intiladigan komillik va go'zallik haqidagi yuksak tasavvur	Ijodiy maqsad, innovatsion intilish va o'zini namoyon qilish ehtiyojini shakllantiradi	[3; 7]

Jadvaldan ko'rinadiki, estetik tarbiya komponentlari kreativ kompetensiyaning shakllanishida turlicha, ammo o'zaro bog'liq vazifalarni bajaradi. Estetik idrok obrazli tafakkurni kengaytirsa, estetik his-tuyg'u ijodiy faoliyat uchun motivatsion-emotsional asos yaratadi. Estetik did shaxsning tanqidiy baholash qobiliyatini kuchaytiradi, estetik ideal esa ijodiy maqsad va innovatsion intilishlarni yuzaga keltiradi.

Zamonaviy pedagogikada kompetensiya tushunchasi shunchaki bilim va ko'nikmalar yig'indisini emas, balki ularni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llay olish layoqatini anglatadi. Kreativ kompetensiya esa shaxsning muammoli vaziyatlarda noodatiy, original va samarali yechimlarni topish, an'anaviy qoliylardan chiqib fikrlash, turli elementlar yoki g'oyalarni sintez qilish qobiliyatidir [6; 7].

Kreativ kompetensiyaning konseptual mezonlari quyidagilardan iborat:

- fikr ravonligi, ya'ni qisqa vaqt ichida turli yechimlarni ilgari surish;
- fikr moslashuvchanligi, ya'ni vaziyatga qarab yondashuvni o'zgartira olish;
- originallik, ya'ni noodatiy va yangicha yechimni taklif qilish;
- sintez qilish qobiliyati, ya'ni bir-biriga bevosita aloqador bo'lmagan elementlardan yangi tizim yaratish.

Estetik jihatdan rivojlangan shaxs obyektlar o'rtasidagi yashirin bog'lanishlarni tezroq payqaydi, assotsiativ fikrlaydi va bu uning intellektual faolligini oshiradi (1-rasm).



1-rasm: Estetik rivojlanishdan kreativ kompetensiyaga o'tish modeli

Model shuni ko'rsatadiki, estetik tarbiya bevosita kreativ kompetensiyani shakllantirmaydi, balki bir necha ichki bosqichlar orqali unga zamin yaratadi. Avvalo, shaxs estetik ta'sirni idrok etadi, keyin unga nisbatan emotsional munosabat hosil qiladi, so'ng baholash mezoni - estetik did shakllanadi. Estetik ideal esa shaxsning ijodiy maqsadini belgilaydi. Natijada kreativ fikrlash va kreativ kompetensiya rivojlanadi.

Estetik tarbiyaning maqsadi va natijasi o'rtasida ko'p bosqichli jarayon mavjud bo'lib, u ma'lum mexanizmlar orqali harakatga keladi. Estetik tarbiya mexanizmlari - bu shaxsning ichki ruhiy olamiga tashqi estetik ta'sirlarni o'tkazish, ularni qayta ishlash va yakunda ijodiy faoliyatga aylantirish usullari, qonuniyatlari hamda pedagogik vositalar tizimidir. Mazkur mexanizmlarni uchta asosiy blokka ajratish mumkin: psixologik-subyektiv, pedagogik-texnologik va ijtimoiy-muhitli mexanizmlar(2-jadval).

**2-jadval: Estetik tarbiya mexanizmlarining tahlili**

Mexanizm bloki	Asosiy mazmuni	Pedagogik vositalar	Kutiladigan natija
<b>Psixologik-subyektiv</b>	Katarzis, empatiya, estetik kechinma va obrazli tasavvur orqali ichki ruhiy faollik yuzaga keladi	Badiiy asarlar, musiqiy va tasviriy materiallar, refleksiv suhbatlar	Hissiy intellekt, empatiya, ijodiy motivatsiya rivojlanadi
<b>Pedagogik-texnologik</b>	Ta'lim mazmuni estetik elementlar va muammoli-ijodiy topshiriqlar bilan boyitiladi	Integratsiyalashgan darslar, loyiha metodi, ijodiy topshiriqlar, dizayn-fikrlash	Original fikrlash, g'oya ishlab chiqish va sintez qilish ko'nikmasi shakllanadi
<b>Ijtimoiy-muhitli</b>	Ta'lim muhiti, madaniy muloqot va ijtimoiy tajriba estetik qadriyatlar bilan boyitiladi	Muzey, teatr, ko'rgazma, ijodkorlar bilan uchrashuv, sinf dizayni	Madaniy saviya, estetik did va ijtimoiy ijodkorlik kuchayadi

Psixologik-subyektiv mexanizm shaxsning ichki ruhiy dunyosida kechadi. Katarzis, ya'ni ruhiy poklanish, san'at yoki go'zallik ta'sirida insonning kuchli hissiy kechinmalarni boshdan kechirishi va ichki dunyosining ijobiy tomonga o'zgarishi bilan bog'liq. Empatiya esa san'at asari qahramonlari, tabiat hodisalari yoki insoniy munosabatlar bilan ichki hissiy uyg'unlikka erishish jarayonidir. Bu jarayon shaxsning hissiy intellekti va kreativ tasavvurini faollashtiradi <sup>[6]</sup>.

Pedagogik-texnologik mexanizm ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan usullar bilan bog'liq. Darslarni san'at elementlari bilan uyg'unlashtirish, masalan, matematika darslarida simmetriya va ritmni, kimyo yoki biologiya darslarida rang, shakl va tabiatdagi uyg'unlikni ko'rsatish estetik idrokni fanlararo rivojlantiradi. Muammoli-ijodiy vaziyatlar yaratish esa ta'lim oluvchini tayyor javobni qabul qilishdan ko'ra, estetik jihatdan mukammal va noodatiy yechim izlashga yo'naltiradi <sup>[3; 4; 8]</sup>.

Ijtimoiy-muhitli mexanizm shaxsni o'rab turgan muhitning tarbiyaviy ta'siri bilan belgilanadi. Ta'lim muassasasining arxitekturasi, sinf xonalarining bezatilishi, tabiat bilan aloqa, madaniy tadbirlar, muzey, teatr va ko'rgazmalarga tashriflar bolalarda tartib, go'zallik, madaniy muloqot va kreativlikka moyillik uyg'otadi <sup>[1; 9]</sup>. Shu nuqtai nazardan, estetik tarbiya faqat dars jarayonida emas, balki butun ta'lim muhiti orqali amalga oshirilishi zarur.

Tahlillar asosida mavjud muammolar quyidagicha aniqlanadi: birinchidan, estetik tarbiya ko'pincha ayrim fanlar yoki san'at mashg'ulotlari doirasida tor talqin qilinadi; ikkinchidan, kreativ kompetensiyani shakllantirishda estetik idrok va estetik didning roli yetarlicha hisobga olinmaydi; uchinchidan, o'qituvchilarda estetik-kreativ yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan; to'rtinchidan, ta'lim muhitining estetik imkoniyatlaridan tizimli foydalanish masalasi amaliyotda to'liq yo'lga qo'yilmagan.

Natijada, estetik tarbiya, kreativ kompetensiya va ularni bog'lovchi mexanizmlar yagona ijtimoiy-pedagogik tizimni tashkil etishi aniqlandi. Estetik tarbiasiz yuksak darajadagi kreativ kompetensiyani shakllantirish qiyin, chunki his-tuyg'usi, didi va ideali rivojlanmagan kreativlik ma'naviy mazmundan uzilgan texnik ko'nikmaga aylanib qolishi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayonida estetik tarbiya kreativ kompetensiyani rivojlantirishning ma'naviy, hissiy, intellektual va metodik asosi sifatida qaralishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy-konseptual tahlil estetik tarbiya, kreativ kompetensiya va estetik tarbiya mexanizmlari o'zaro uzviy bog'liq pedagogik hodisalar ekanini ko'rsatdi. Estetik tarbiya shaxsda go'zallikni idrok etish, baholash, qadrlash va unga muvofiq faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantiradi. Kreativ kompetensiya esa ana shu estetik idrok, his-tuyg'u, did va idealning amaliy-ijodiy faoliyatda namoyon bo'lish shakli sifatida qaralishi mumkin.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Estetik tarbiya shaxsning faqat badiiy didini emas, balki ijodiy tafakkuri, emotsional intellekti, assotsiativ fikrlashi va innovatsion faoliyatga tayyorligini ham rivojlantiradi.
2. Kreativ kompetensiya estetik tarbiya orqali shakllangan boy ichki dunyoning amaliy natijasi sifatida namoyon bo'ladi.
3. Estetik tarbiya mexanizmlarini psixologik-subyektiv, pedagogik-texnologik va ijtimoiy-muhitli bloklar asosida tashkil etish ta'lim jarayonining tarbiyaviy samaradorligini oshiradi.



Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini shakllantirishda estetik-kreativ yondashuv alohida metodik tamoyil sifatida inobatga olinishi lozim;
- fanlarni o'qitishda san'at, dizayn, tabiatdagi uyg'unlik, obrazli tafakkur va ijodiy topshiriqlar bilan integratsiyalashgan dars modellarini keng joriy etish zarur;
- pedagoglarning estetik-kreativ kompetensiyasini oshirish bo'yicha seminar, trening va metodik qo'llanmalar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq;
- ta'lim muassasalarida estetik muhitni yaratish, sinf xonalari dizayni, ko'rgazmalar, ijodiy burchaklar, madaniy tadbirlar, teatr va muzeylar bilan hamkorlikni kuchaytirish, bolalar va o'quvchi-yoshlarning estetik didi hamda kreativ faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi;
- kreativ kompetensiyani baholashda faqat mahsulot natijasini emas, balki fikr ravonligi, moslashuvchanligi, originalligi, estetik ifoda va ijodiy yechim mezonlarini ham hisobga olish tavsiya etiladi.

Estetik tarbiya mexanizmlarini to'g'ri, tizimli va zamonaviy talablar asosida yo'lga qo'yish ta'lim oluvchini faqat axborot qabul qiluvchi subyekt emas, balki yangi g'oyalar generatori, estetik didga ega ijodkor shaxs, innovatsion fikrlovchi va madaniy faoliyat subyektini sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'limning eng muhim strategik vazifalaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djurayeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. – T.: O'ZPFITI, 2015.
2. Комарова Т.С. Развитие художественных способностей дошкольников: монография. – М., 2016.
3. Jo'rayev Sh., Allamov A.A. Bolalar nafosat tarbiyasi va yangi pedagogik texnologiyalar: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy", "Durdona", 2023. – 60 b.
4. Xalikova U.M. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022. – 216 b.
5. Muhammadjonova L.A. Etika va estetika fanlarini o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – T., 2017. – 108 b.
6. Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6 т. Т. 2: Проблемы общей психологии / под ред. В.В. Давыдова. – М.: Педагогика, 1982. – 504 с.
7. Котова В., Кузнецова С.В., Романова Т.С. Развитие творческих способностей дошкольников: методическое пособие. – М., 2018.
8. Xomidova D. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish: o'quv qo'llanma. – Namangan: "Usmon Nosir Media" nashriyoti, 2023. – 280 b.
9. Сулаймонов А.П. Тасвирий санъат таълими сифат ва самарадорлигини оширишнинг дидактик имкониятлари: монография. – Тошкент: ТАҚИ, 2017. – 37 б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(6)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.